

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTRISHDA ART-TERAPIYANING TA`SIRI



Fan va texnologiyalar universiteti

psixologiya fan o‘qituvchisi

Nasirova Zilolaxon

Fan va texnologiyalar universiteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalish talabasi

Axmedova Azizaxon

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagiga bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishda art-terapiyaning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Art-terapiya bolalarning his-tuyg‘ularini erkin ifodalashi, tasavvur va ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi samarali usul ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, art-terapiyaning turli texnikalari, jumladan, ranglar terapiyasi, shakllar yasash va hikoya yaratish usullari misolida amaliy qo‘llanilish tajribalari ko‘rib chiqiladi. Maqola davomida art-terapiya yordamida bolalarda muammoni ijodiy hal qilish, tasavvurni kengaytirish va emotsiyal barqarorlikni shakllantirish kabi ijobiy o‘zgarishlar yuzaga kelishi tushuntiriladi. Ushbu tadqiqot maktabgacha ta’lim muassasalari uchun ijodkorlikni rivojlantirishda samarali yondashuvlarni taklif etadi.

Аннотация:

В данной статье анализируется роль и значение арт-терапии в развитии креативного мышления у детей дошкольного возраста. Подчеркивается, что арт-терапия является эффективным методом, способствующим свободному выражению эмоций, развитию воображения и творческого мышления у детей. Также рассматриваются примеры практического применения различных техник арт-терапии, таких как терапия цветами, создание форм и создание историй. В статье объясняется, как с помощью арт-терапии у детей формируются такие положительные изменения, как творческое решение проблем, расширение

воображения и эмоциональная устойчивость. Данное исследование предлагает эффективные подходы для развития креативности в дошкольных образовательных учреждениях.

Annotation:

This article examines the role and importance of art therapy in developing creative thinking in preschool-aged children. It emphasizes that art therapy is an effective method for fostering free expression of emotions, imagination, and creative thinking in children. Additionally, the article explores practical applications of various art therapy techniques, such as color therapy, shape creation, and storytelling. Throughout the article, it is explained how art therapy contributes to positive changes in children, such as creative problem-solving, expanding imagination, and developing emotional stability. This research offers effective approaches for promoting creativity in preschool educational institutions.

Kirish. Maktabgacha yosh bolalar uchun ijodiy fikrlashni rivojlantirish ularning shaxsiy va intellektual taraqqiyotidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bolalarning miyasida asosiy rivojlanish jarayonlari kechadi, bu esa ularning kognitiv qobiliyatlarini shakllantiradi va hissiy-intellektual rivojlanishiga zamin yaratadi. Bolalar shu davrda atrof-muhitni o‘rganish orqali tasavvurlarini boyitadi, voqealarni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi va fikr yuritishning ilk asoslarini egallaydi. Shuningdek, ular o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashni, o‘zlarini boshqalar bilan taqqoslashni o‘rganadilar va ijtimoiy munosabatlarga kirishadilar. Shu boisdan, bu yoshda kreativ tafakkurni rivojlantirish uchun maxsus usullarni qo‘llash alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda art-terapiya usullari juda samarali hisoblanadi. Art-terapiya san’at orqali o‘zini ifoda qilish va ichki dunyoni ochib berishning o‘ziga xos metodidir. Ushbu yondashuv bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, o‘z hissiyotlarini anglash va ularni boshqalar bilan baham ko‘rishga yordam beradi. Bundan tashqari, art-terapiya bolalarning estetik didini shakllantiradi, ularning tasavvurlarini boyitadi va nostandart fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuni ta’kidlash joizki, art-terapiyaning asosiy maqsadi faqat ijodiy tafakkurni rivojlantirish

bilan cheklanib qolmaydi. U, shuningdek, bolalarning hissiy barqarorligini oshirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Art-terapiya jarayonida bola ranglar, shakllar, musiqalar yoki boshqa san’at elementlari orqali o‘zining ichki his-tuyg‘ularini ifoda etadi, bu esa uning psixologik va hissiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, art-terapiya bolalarning ijodkorligini rivojlantirishda turli texnikalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, ranglar bilan ishslash bolalar uchun tasavvurlarni shakllantirish va ularni erkin ifodalash imkonini beradi. Plastilin yoki loydan shakllar yasash esa bolaning qo‘l motorikasini rivojlantiradi va fazoviy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Rassomchilik yoki hikoya yaratish mashg‘ulotlari orqali esa bola voqealarni tahlil qilish, ularni qayta tiklash va o‘z fikrini aniq yetkazish ko‘nikmalarini egallaydi. Shu tarzda art-terapiya bolalarda ijodiy fikrlash bilan birga, boshqa muhim qobiliyatlarni ham shakllantiradi.

Mazkur yondashuv nafaqat bolalarning individual rivojlanishida, balki ta’lim jarayonida ham muhim o‘rin egallaydi. Art-terapiya o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiradi, guruh bilan ishslashga yordam beradi va bolalarda jamoaviy ishslash qobiliyatini shakllantiradi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim muassasalarida art-terapiya usullaridan keng foydalanish ularning ijodiy va psixologik rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Art-terapiyaning mohiyati

Art-terapiya – bu san’at va psixologiyaning o‘zaro uyg‘unlashgan yondashuvi bo‘lib, bola yoki kattalarning ichki dunyosini ochib berishga, ularning hissiy va ruhiy holatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Bu uslub insonning ichki dunyosidagi muammolarni ifodalashda, stress va qiyinchiliklarni yengishda san’atning turli shakllaridan foydalanadi. Art-terapiya jarayonida shaxs ranglar, shakllar, obrazlar yoki boshqa san’at elementlari yordamida o‘zini erkin ifodalaydi, bu esa uning ichki dunyosiga nazar solishga va muammolarini yechishga yordam beradi. Ushbu uslub bolalar uchun alohida ahamiyatga ega, chunki ular hissiyotlarini og‘zaki ifodalashda ba’zan qiyinchiliklarga duch kelishadi. Art-terapiya yordamida esa ular o‘z fikr va his-tuyg‘ularini obrazlar orqali erkin bayon qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Masalan, bola

o‘z qo‘rquinchlarini qorong‘u ranglar yordamida tasvirlashi yoki quvonchini yorqin ranglarda ifodalashi mumkin. Shuningdek, bola shakllar yasash, rasm chizish, loydan haykalcha qilish orqali o‘z dunyoqarashini kengaytiradi va o‘z ichki muhitini aks ettiradi. Art-terapiya faqat hissiy va ijodiy rivojlanish bilan cheklanmaydi. Uning asosiy maqsadlaridan biri ruhiy barqarorlikni ta’minlash, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish va o‘z shaxsini anglashdir. Bu uslub bolalarga stressli vaziyatlarni yengishga, o‘zlarini anglashga va o‘zlarining ijobiy tomonlarini ochishga yordam beradi. Masalan, jamoada art-terapiya mashg‘ulotlari o‘tkazilsa, bolalar o‘zaro muloqotni rivojlantiradi, hamkorlik qilishni o‘rganadi va bирgalikda ijod qilish orqali o‘z imkoniyatlarini namoyish etadi. Art-terapiyaning yana bir muhim jihat – uning universalligi. U individual va guruqli mashg‘ulotlarda, turli yosh toifalari va ijtimoiy guruhlar bilan ishslashda qo‘llanishi mumkin. Masalan, maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan ranglar va shakllar bilan ishslash, maktab yoshidagi bolalar bilan hikoyalari yaratish yoki kattalar bilan murakkab kompozitsiyalar ustida ishslash samarali natijalar beradi. Har bir usul shaxsning ehtiyojlariga mos ravishda tanlanadi.

Vygotskiy ijodiy tafakkur bolalarning rivojlanishidagi eng muhim jarayonlardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko‘ra, bolalar o‘zlarining ijodkorlik salohiyatini tashqi dunyo bilan muloqot qilish orqali rivojlantiradi. Art-terapiya esa bolalarning o‘z histuyg‘ularini ifodalashi uchun qulay muhit yaratib, ijodkorlik jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Vygotskiyning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bolalar ranglar, shakllar va mavhum fikrlash vositalari orqali o‘zlarining tasavvurlarini boyitadi.

Ijodkorlik va kreativ tafakkur Vygotskiy uchun bolaning kelajakdagi ijtimoiy va intellektual salohiyatini shakllantirishdagi eng muhim ko‘nikma sifatida qaraladi. U o‘yin va san’at faoliyatining bolaning ichki dunyosini shakllantirishdagi ijobiy ta’siriga urg‘u beradi.

2. Ross, A. – Art-terapiya va rivojlantiruvchi texnikalar

Rossning tadqiqotlari art-terapiyaning bolaning emotsional va kognitiv rivojlanishiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’sirini batafsil tahlil qiladi. Uning asarida

maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun art-terapiyaning quyidagi texnikalari tavsiya qilingan:

Rang terapiysi: bolalar o‘z his-tuyg‘ularini ranglar orqali ifodalashadi. Bu usul orqali bolalar nafaqat ijodiy tafakkurlarini rivojlantiradi, balki o‘z his-tuyg‘ularini anglashni o‘rganadi.

Shakllar yasash: loy, plastilin yoki boshqa materiallar bilan ishslash bolaning tasavvurini boyitadi va qo‘l-motor ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ross art-terapiya yordamida bolalarning emotsiyalini barqarorlashtirish va ijodkorlik qobiliyatini oshirishni ta’kidlaydi.

3. Gardner, H. – Ijodkorlik nazariyasi: tafakkur va emotsiyalar

Gardner ijodkorlikning emotsiyalini barqarorlik bilan bog‘liqligini o‘rganadi va ijodkorlikni rivojlantirish uchun emotsiyalni muhitning muhimligini ta’kidlaydi. Uning nazariyasiga ko‘ra, ijodkor tafakkur bolaning hayotga qiziqishini oshirish va yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatini rivojlantiradi. Gardner ijodiy jarayonlarni bolalar bilan ishslashda art-terapiya shaklida amalga oshirishni tavsiya etadi. Uning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalar o‘zlarini qulay his qiladigan muhitda ijodkorlik qobiliyatini yaxshiroq namoyon qiladilar.

Gardner shuningdek, bolalarga ijodiy o‘yinlar orqali yangi bilim va tajribalarni mustahkamlashni taklif qiladi. Ranglar, musiqa, rasm va boshqa san’at turlari bolalar uchun o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini yaratadi.

4. Malinovskaya, L. – Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan art-terapiya mashg‘ulotlari

Malinovskaya o‘z asarida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan art-terapiya mashg‘ulotlarini amalga oshirish metodikasini ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, art-terapiya orqali bolalarda quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi:

O‘ziga ishonch ortadi: bolalar o‘z fikrlarini ijodiy ifodalash orqali o‘zlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Stress va xavotir kamayadi: ijodiy mashg‘ulotlar bolalarning emotsiyalini barqarorligini oshiradi.

Mantiqiy tafakkur rivojlanadi: rasm chizish yoki shakllar yasash orqali bolalar o‘z fikrlarini tuzilmaviy asosda ifodalashga o‘rganadilar.

Malinovskaya art-terapiya mashg‘ulotlarini amalga oshirishda turli materiallar va metodlardan foydalanishni taklif qiladi, masalan, loy, plastilin, rangli bo‘yoqlar va qog‘oz

5. Edwards, B. – O‘ng miya orqali chizish san’ati

Edwardsning tadqiqotlari bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda o‘ng miyadan foydalanish ahamiyatiga bag‘ishlangan. Uning fikriga ko‘ra, bolalar o‘zlarini ijodiy ifoda qilganda, asosan, miyaning o‘ng yarim shari faol bo‘ladi. Edwards bolalar uchun ijodiy mashg‘ulotlarni tashkil etishda ularning tasavvurini rag‘batlantirish va ularni mustaqil fikrlashga undashni tavsiya etadi. Chizish faoliyati bolalarda vizual fikrlash va e’tiborni jamlash qobiliyatlarini oshiradi. Edwardsning tadqiqotlari art-terapiya orqali bolalarning nafaqat ijodkorligini, balki umumiy intellektual rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Kreativ tafakkurni rivojlantirish

Kreativ tafakkur – bu insonning o‘ziga xos fikrlash qobiliyatini namoyon etishi, yangi va original g‘oyalarni ishlab chiqishi, nostandard yondashuv orqali muammolarni hal qilishga imkon beradigan jarayondir. Bu qobiliyat, ayniqsa, bolalik davrida, xususan, mакtabgacha yoshda intensiv rivojlanadi, chunki bu davrda bolalar dunyonı qiziqish bilan o‘rganib, o‘z tasavvurlarini boyitish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. Maktabgacha yoshdagи bolalar ko‘pincha o‘zlarini atrof-muhitni kuzatish orqali rivojlantiradilar. Ular savollar berib, dunyo haqida bilim olishga intiladilar. Shu jarayonda kreativ tafakkur ularning tasavvurlarini kengaytirib, narsalarni boshqacha ko‘rish, o‘ziga xos tarzda tahlil qilish va yangi yechimlarni topish qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, oddiy buyumlar – qog‘oz, bo‘yoq yoki plastikdan foydalanib, bolalar o‘z dunyoqarashlarini ijodiy tarzda ifodalaydilar. Bu jarayon ularning ijodkorligini nafaqat rivojlantiradi, balki ularga o‘z fikrlarini erkin ifodalashga imkon yaratadi. Kreativ tafakkurni rivojlantirishda art-terapiyaning o‘rni beqiyosdir. Art-



terapiya orqali bolalar o‘z ichki dunyosini tasvirlashda, his-tuyg‘ularini ifoda etishda va yangi g‘oyalarni yaratishda faol ishtirok etadilar. Masalan, rasm chizish, loydan haykal yasash yoki hikoyalar yaratish bolalarga o‘z fikrlarini tizimli va original tarzda ifodalash imkonini beradi. Ranglarni qo‘llash orqali bolalar his-tuyg‘ularini aks ettiradilar, shakllar bilan ishslash orqali esa ular muammolarni hal qilish uchun yangi yondashuvlarni sinab ko‘radilar. Kreativ tafakkurni rivojlantirish nafaqat bolalarning ijodiy qobiliyatlarini kengaytiradi, balki ularning mantiqiy va analitik fikrlashini ham rivojlantiradi. Nostandard vaziyatlarda kreativ yondashuvni qo‘llash bola hayotining keyingi bosqichlarida, xususan, maktab ta’limida va keyingi faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi. Bolalar art-terapiya mashg‘ulotlari orqali o‘zlarining tasavvur chegaralarini kengaytirib, ko‘proq ijodiy yechimlarni topishga o‘rganadilar. Yana bir muhim jihat shundaki, kreativ tafakkurni rivojlantirish bolalarga faqat ijodkorlikda emas, balki o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirishda ham yordam beradi. Bolalar o‘z g‘oyalarni ifodalash orqali o‘zlarini qadrlashni, o‘z ishlarining ahamiyatini his qilishni va o‘z nuqtai nazarini himoya qilishni o‘rganadilar. Masalan, bolalar jamoaviy ijodiy loyihalarda ishtirok etish orqali hamkorlik qilishni va bir-birining fikrlarini qadrlashni o‘zlashtiradilar.

Art-terapiyaning ta’siri va usullari

Art-terapiyaning ta’siri

Art-terapiya bolaning ruhiy va psixologik holatini mustahkamlashda, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. U orqali bolalar o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifodalay oladilar, bu esa ular ichidagi qo‘rquv, stress yoki tashvishlarni yengib o‘tishda yordam beradi. Bu jarayon nafaqat psixologik barqarorlikni, balki bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, art-terapiya bilan shug‘ullangan bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanib, o‘zaro muloqot qobiliyati yaxshilanadi. Bu usul bolaga ichki dunyosini namoyon etish, o‘z fikrlarini tasvirlash va boshqa odamlar bilan his-tuyg‘ularini bo‘lishish imkoniyatini beradi. Masalan, o‘z ijodiy ishlarini ko‘rsatish orqali bola nafaqat o‘zini qadrlashni, balki tanqidga bardosh berishni ham o‘rganadi.



Art-terapiya bolalarning stressni yengishda, hissiy muvozanatni tiklashda va o‘z ichki imkoniyatlarini kashf etishda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda bu usul tafakkurni faollashtirib, muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu jarayon bolaning o‘zini anglash va atrof-muhitni tushunish qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Art-terapiyaning usullari

Art-terapiyaning samaradorligi ko‘p jihatdan uning usullari va texnikalariga bog‘liq. Quyida eng keng tarqalgan art-terapiya usullari haqida ma’lumot beriladi:

1. Ranglar terapiysi

Ranglarning psixologik ta’siri bolalarning hissiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, yorqin va iliq ranglar (qizil, sariq) bolalarning energiyasini oshiradi, sovuq ranglar (ko‘k, yashil) esa tinchlantiruvchi ta’sirga ega. Ranglar bilan ishlash bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini aks ettirish va boshqarish imkonini beradi. Bolalar o‘zlarini yaxshi his qilishlari uchun ular o‘zlariga yoqqan ranglarni tanlab chizish yoki bo‘yashadi.

2. Shakllar yasash

Bu usul bolalarning qo‘l motorikasi va ijodiy tasavvurini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Shakllar yasash jarayonida bola o‘z fantaziyasini ishga solib, loy, plastilin yoki qog‘oz yordamida o‘z tasavvuridagi narsalarni yaratadi. Bu nafaqat ijodiy tafakkurni rivojlantiradi, balki bolaning e’tiborini jamlash va muammolarga yechim topish ko‘nikmalarini ham oshiradi.

3. Hikoya yaratish

Bolalarga o‘zlarining hikoyalarini yaratish imkoniyatini berish ularning tasavvurlarini boyitadi. Bu usul orqali bola o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash, voqealarga mustaqil baho berish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Hikoya yaratish jarayonida bolaning dunyoqarashi kengayib, u turli vaziyatlarga ijodiy yondashishni o‘rganadi.

4. Musiqiy terapiya

Musiqa orqali art-terapiya bolalar uchun stressni kamaytirish va hissiy muvozanatni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Bolalar musiqa yordamida o‘z holatlarini aks ettirib, ruhan yengillik his qilishadi. Ritimli mashqlar, musiqaga raqs tushish yoki oddiy musiqiy asboblarni chalish bolalarning ijodkorlik salohiyatini oshiradi.

5. Erkin chizish

Erkin chizish bolalarga o‘z dunyoqarashlarini cheklovsiz namoyon etish imkonini beradi. Bu usul bolalarning o‘ziga xos fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning ichki dunyosini yaxshiroq tushunish uchun samarali vositadir. Bolalar o‘z tasavvurlarini qog‘ozga tushirganlarida, ular o‘zlarini erkin va mustaqil his qilishadi.

Xulosa. Art-terapiya maktabgacha yoshdagি bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda eng samarali va ta’sirchan pedagogik usullardan biri hisoblanadi. Bolalar bu davrda o‘zlarining his-tuyg‘ularini boshqarish va ifodalash qobiliyatlarini shakllantiradi. Art-terapiya aynan shu jarayonni qo‘llab-quvvatlab, bolalarning ijodkorligini oshirishga imkon yaratadi. Ranglar, shakllar, tasvirlar va boshqa san’at elementlari orqali ular o‘z ichki kechinmalarini ifodalay oladi. Ushbu jarayon nafaqat ularning tasavvurlarini kengaytiradi, balki psixologik va emotsiyal holatini barqarorlashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Rang terapiyasi bolalarning ichki his-tuyg‘ularini ifodalashiga va ichki muvozanatni topishiga yordam beradi. Masalan, yorqin ranglar ulardagi quvonch va ijobiy hissiyotlarni oshirsa, sokin ranglar ularga tinchlanish va xotirjamlik hissini beradi. Shuningdek, art-terapiya bolaning salbiy his-tuyg‘ularini konstruktiv yo‘l bilan chiqarishiga imkon yaratadi. Bu orqali bolaning ichki dunyosi bilan ishlash va ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish mumkin. Salbiy hissiyotlar, jumladan, agressiya va qo‘rquv art-terapiya orqali ijobiy ijodiy energiyaga aylantiriladi. Art-terapiya bolaning muammolarni ijodiy hal qilish ko‘nikmasini ham rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagи bolalar atrof-muhitni bilish jarayonida turli xil vaziyatlarga duch keladi. Ushbu vaziyatlarni san’at orqali talqin qilish ularda nostandard fikrlash va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Tasviriy san’at, loydan shakllar yasash yoki hikoya yaratish kabi faoliyatlar orqali

bolalar o‘z dunyoqarashlarini boyitadi va ijodkorlik chegaralarini kengaytiradi. Art-terapiya nafaqat individual rivojlanishni, balki guruh bilan ishlash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Guruhda birgalikda rasm chizish yoki loydan shakllar yasash bolalarda ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu ularga fikr almashish, boshqalarni tinglash va jamoa bo‘lib ishlashni o‘rgatadi. Guruh mashg‘ulotlari bolalarning ijtimoiy integratsiyasiga va atrofdagilar bilan mustahkam munosabatlar o‘rnatishiga yordam beradi. Shu bilan birga, art-terapiya bolalarning emotsiyal va ruhiy barqarorligini oshiradi. Bu metod orqali bolalardagi stress, xavotir va boshqa salbiy his-tuyg‘ularni bartaraf etish mumkin. Bola san’at orqali o‘z ichki dunyosini ochib beradi va natijada ijobiy o‘zgarishlarga erishadi. Masalan, bolalar rasm chizayotganda yoki loydan shakllar yasayotganda o‘z hissiyotlarini bevosita ifodalashadi. Ushbu faoliyatlar ularga ichki tinchlikni topish va o‘zlarini yanada ishonchli his qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, art-terapiya mактабгача ta’lim jarayonining muhim qismi bo‘lib, bolalarning ijodiy va emotsiyal rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu usul bolalarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish bilan birga, ularning psixologik muvozanatini saqlashga ham yordam beradi. Bolalar o‘z his-tuyg‘ularini san’at orqali ifodalash jarayonida ichki muvozanatni topadi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanadi va tashqi muhit bilan uyg‘unlikda rivojlanadi. Shuningdek, art-terapiya ta’lim jarayoniga integratsiya qilinganida, u bolaning nafaqat ijodkorligini, balki ijtimoiy ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Bolalar birgalikda ijod qilish jarayonida hamkorlik va bir-birini tushunish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday faoliyatlar bolalarning jamoadagi o‘z o‘rnini tushunishiga, atrofdagilar bilan muloqotni yaxshilashiga va o‘zlarini jamiyatning bir qismi sifatida his qilishiga yordam beradi. Art-terapiyaning bolalarning his-tuyg‘ularini boshqarish, o‘z fikrlarini aniq va erkin ifoda qilish hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi roli juda katta. Ushbu metodni keng qo‘llash orqali bolalarning shaxsiy rivojlanishida muhim o‘zgarishlarga erishish mumkin. Shu sababli, art-terapiya mактабгача ta’lim muassasalarida keng qo‘llanilishi lozim, chunki u ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarning barcha jihatdan rivojlanishiga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, art-terapiya bolalarning ijodiy

tafakkurini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning emotsiyal va psixologik barqarorligini ta'minlashga ko'maklashadi. Ushbu usul bolalarni nafaqat ijodiy shaxs sifatida tarbiyalaydi, balki ularga hayotga ijodiy yondashuvni o'rgatadi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishslashda art-terapiyani qo'llash nafaqat tarbiyachilar, balki ota-onalar uchun ham muhimdir. San'atning terapevtik kuchidan foydalanish bolalarning kelajakda muvaffaqiyatli va ijodkor shaxs bo'lib yetishishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Vygotskiy L.S. Bolalar psixologiyasida ijodiy tafakkur. Moskva, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim konsepsiysi (2022).
3. Ross, A. Art-terapiya va rivojlantiruvchi texnikalar. Nyu-York, 2018.
4. Gardner, H. Ijodkorlik nazariyasi: tafakkur va emotsiyalar. Harvard universiteti nashriyoti, 2006.
5. Malinovskaya, L. Maktabgacha yoshdagи bolalar bilan art-terapiya mashg'ulotlari. Moskva, 2015.